So'nggi yillarda xalqaro ta'lim amaliyotida "future skills", "foresight education", "life design", "career adaptability", "lifelong learning" kabi konsepsiyalarga asoslangan yondashuvlar keng rivojlanmoqda. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarni kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga moslashishga tayyorlash, ularda shaxsiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, ongli kasbiy tanlov qilish va uzluksiz o'zini takomillashtirib borish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonlarda o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasi integrativ shaxsiy sifat sifatida namoyon bo'lib, u motivatsion, kognitiv, refleksiv hamda faoliyatga oid tarkibiy qismlarning o'zaro uyg'unligi asosida rivojlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilayotgan "Kelajak soatlari" mashg'ulotlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, kelajakdagi hayotiy maqsadlarini belgilash, kasbiy orientatsiyasini shakllantirish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Biroq mazkur mashg'ulotlarning o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatlari, mazmuni, metodlari va tashkiliy mexanizmlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini "Kelajak soatlari" darslari vositasida rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda tajriba-sinov ishlari orqali samaradorligini asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini "Kelajak soatlari" darslari vositasida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini aniqlash, mazmuniy komponentlarini belgilash hamda amaliy samaradorligini baholash maqsadida kompleks tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiv yondashuv, faoliyatli yondashuv hamda o'z-o'zini boshqariladigan ta'lim konsepsiyasi tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida dastlab o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining pedagogik-psixologik mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi, shakllanish omillari va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Bu bosqichda mahalliy va xorijiy pedagogik-psixologik adabiyotlar, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro ta'lim konsepsiyalari, o'quv dasturlari hamda "Kelajak soatlari" mashg'ulotlarining mazmuni o'rganildi. Ayniqsa, self-education, self-regulated learning, lifelong learning, future skills, life design va career guidance kabi tushunchalar o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi.

Nazariy tahlillar asosida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasi yuqori sinf o'quvchisining o'z shaxsiy imkoniyatlarini anglash, maqsad qo'yish, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, ichki motivatsiyasini boshqarish, xatti-harakatlarini nazorat qilish, natijalarni baholash hamda shaxsiy rivojlanish yo'nalishini ongli ravishda belgilashga qaratilgan integrativ kompetensiya sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda quyidagi nazariy metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va konseptual loyihalash. Ushbu metodlar yordamida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari aniqlashtirildi hamda "Kelajak soatlari" darslari doirasida uni rivojlantirishga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi.

Tadqiqotning empirik bosqichida kuzatish, suhbat, anketa so'rovi, diagnostik topshiriqlar, o'quvchilar faoliyati mahsullarini tahlil qilish, pedagogik tajriba-sinov hamda natijalarni matematik-statistik qayta ishlash metod-



laridan foydalanildi. Mazkur metodlar o'quvchilarning o'zini anglash, maqsad qo'yish, mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatiga tanqidiy baho berish va shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy nazorat bosqichlari. Aniqlovchi bosqichda yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining dastlabki holati o'rganildi. Bu jarayonda o'quvchilarning o'z shaxsiy fazilatlarini anglash darajasi, kelajak maqsadlariga munosabati, mustaqil rivojlanishga ehtiyoji, o'z-o'zini baholash ko'nikmalari hamda shaxsiy mas'uliyat hissi tahlil qilindi.

Anketa va suhbat natijalari o'quvchilarning aksariyatida kelajak rejalari mavjud bo'lsa-da, ularni aniq maqsad, reja va amaliy harakatlar tizimi bilan bog'lash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi. Shakllantiruvchi bosqichda "Kelajak soatlari" darslari mazmuniga o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik topshiriqlar, refleksiv mashqlar, individual va guruhli faoliyat shakllari kiritildi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, hayotiy maqsadlarini belgilash, o'z ustida ishlash rejasini tuzish va o'z faoliyatini baholashga yo'naltirilgan interfaol metodlardan foydalanildi.

Metodik ishlar jarayonida "Mening kelajak xaritam", "SMART maqsadlar", "Shaxsiy rivojlanish kundaligi", "Men kimman va kim bo'lmoqchiman?", "Kasbiy yo'nalishim va imkoniyatlarim", "Kuchli va zaif tomonlarim tahlili", "Bir oyda o'zimni rivojlantirish rejasini", "Refleksiv esse", "Hayotiy qadriyatlar piramidasini" kabi topshiriqlar qo'llanildi. Mazkur topshiriqlar o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, ichki motivatsiyasini faollashtirish, mustaqil fikrlash, tanlov qilish va o'z faoliyatiga ongli munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Yakuniy nazorat bosqichida tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning natijalari qiyosiy tahlil qilindi. O'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining rivojlanish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi: motivatsion-qadriyatli mezon, kognitiv mezon, faoliyatli-amaliy mezon va refleksiv-baholovchi mezon.

Motivatsion-qadriyatli mezon orqali o'quvchilarning o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji, shaxsiy o'sishga intilishi, kelajakdagi maqsadlariga mas'uliyatli munosabati aniqlandi.

Kognitiv mezon o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash mazmuni, shaxsiy rivojlanish yo'llari, maqsad qo'yish va rejalashtirish usullari haqidagi bilimlarini baholashga xizmat qildi.

Faoliyatli-amaliy mezon orqali o'quvchilarning o'z ustida ishlash rejasini tuzish, belgilangan maqsad sari amaliy harakat qilish, vaqtni boshqarish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari o'rganildi.

Refleksiv-baholovchi mezon esa o'quvchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, xatti-harakatlarini tuzatish hamda rivojlanish natijalariga baho berish qobiliyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasi uch darajada baholandi: yuqori, o'rta va past daraja.

Yuqori darajadagi o'quvchilar o'z shaxsiy imkoniyatlarini anglaydi, aniq maqsad qo'ya oladi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, natijalarni baholaydi va shaxsiy rivojlanish jarayoniga mas'uliyat bilan yondashadi.

O'rta darajadagi o'quvchilarda o'zini rivojlantirishga qiziqish mavjud bo'lsa-da, faoliyatni rejalashtirish va izchil amalga oshirishda tashqi ko'makka ehtiyoj seziladi.

Past darajadagi o'quvchilarda esa o'z ustida ishlashga bo'lgan ichki motivatsiya sust, maqsadlar noaniq, refleksiya va o'zini baholash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi.

Tajriba-sinov jarayonida olingan ma'lumotlar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilindi.

Sifat tahlilida o'quvchilarning refleksiv yozuvlari, suhbat javoblari, guruhli faoliyatdagi ishtiroki hamda shaxsiy rivojlanish rejalari o'rganildi.

Miqdoriy tahlilda esa anketa natijalari, diagnostik topshiriqlar ballari va tajriba hamda nazorat guruhlari ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Shunday qilib, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar majmuasi "Kelajak soatlari" darslari orqali yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini har tomonlama o'rganish, uning samaradorligini aniqlash va ilmiy-metodik xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari davomida "Kelajak soatlari" mashg'ulotlari vositasida yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimning samaradorligi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodikaning o'quvchilarning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy hamda refleksiv-baholovchi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini namoyon etdi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, tadqiqot ishtirokchilarining aksariyatida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining ayrim tarkibiy elementlari shakllangan bo'lsa-da, mazkur kompetensiyaning yaxlit tizim sifatidagi rivojlanish darajasi yetarli emasligi aniqlandi. Jumladan, ko'plab o'quvchilar o'z oldiga maqsad

qo'yishga intilish bildirgan bo'lsalar-da, maqsadlarni aniq rejalashtirish, ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqish, vaqtni samarali boshqarish va o'z faoliyatini muntazam monitoring qilish ko'nikmalarida muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatildi.

Aniqlovchi bosqich natijalarida o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasi rivojlanganlik darajasi uch mezon – yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha baholandi. Olingan ma'lumotlar tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida statistik jihatdan sezilarli tafovut mavjud emasligini ko'rsatdi, bu esa shakllantiruvchi ta'sirni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratdi. Shakllantiruvchi bosqichda "Kelajak soatlari" mashg'ulotlariga integratsiyalashgan metodik topshiriqlar tizimi izchil joriy etildi. O'quvchilar tomonidan "Mening kelajak xaritam", "SMART maqsadlar", "Shaxsiy rivojlanish kundaligi", "Hayotiy qadriyatlar piramidasini", "Bir yil ichidagi rivojlanish trayektoriyam" kabi mashg'ulotlarning bajarilishi ularning o'zini anglash darajasini oshirish, ichki motivatsiyasini mustahkamlash hamda shaxsiy rivojlanish istiqbollarini ongli ravishda belgilashiga xizmat qildi.

Tajriba yakunida o'tkazilgan nazorat diagnostikasi natijalari tajriba guruhidagi o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining barcha komponentlari bo'yicha ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini adekvat baholash, uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni belgilash, individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish, o'z faoliyatini natijalarini tahlil qilish va kelgusidagi harakatlarini rejalashtirish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo'yicha o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoji, o'z ustida ishlashga nisbatan ijobiy munosabati va o'z kelajagiga nisbatan mas'uliyat hissi ortganligi kuzatildi. Kognitiv komponent doirasida esa o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni, maqsad qo'yish texnologiyalari, refleksiya usullari hamda kasbiy o'zini o'zi belgilash masalalari bo'yicha bilimlari kengaydi.

Faoliyatli-amaliy komponentda o'quvchilar mustaqil ravishda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, kundalik faoliyatini tashkil etish, ustuvor vazifalarni aniqlash va yuzaga keladigan muammolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini namoyon etdilar. Refleksiv-baholovchi komponent bo'yicha esa o'quvchilarda o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va keyingi faoliyatini takomillashtirishga intilish darajasi oshganligi aniqlandi. Pedagogik kuzatishlar va o'quvchilarning refleksiv yozuvlari tahlili shuni ko'rsatdiki, "Kelajak soatlari" mashg'ulotlarida qo'llanilgan interfaol metodlar o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashi, shaxsiy qadriyatlarini anglab yetishi, hayotiy maqsadlarini aniqlashtirishi va o'z rivojlanishiga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida "Kelajak soatlari" mashg'ulotlarining salmoqli pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari davomida aniqlangan ijobiy o'zgarishlar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarini faollashtirish, kelajakka oid maqsadlarni aniq belgilash hamda o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar B. J. Zimmermannning o'z-o'zini boshqariladigan ta'lim (Self-Regulated Learning) nazariyasining asosiy qoidalari bilan uyg'unlik kasb etadi. Zimmermanga ko'ra, ta'lim oluvchi shaxs passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki o'z faoliyatini rejalashtiruvchi, monitoring qiluvchi va natijalarni baholovchi faol subyekt hisoblanadi (Zimmerman, 2000). Olim tomonidan tavsiya etilgan oldindan rejalashtirish (forethought), faoliyatni boshqarish (performance control) va refleksiya (self-reflection) bosqichlari tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik mashg'ulotlar mazmunida o'z aksini topdi. Jumladan, "SMART maqsadlar", "Shaxsiy rivojlanish kundaligi" va "Mening kelajak xaritam" kabi topshiriqlar o'quvchilarning maqsadli faoliyatini tashkil etishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi bilan ham metodologik jihatdan mos keladi. Bandura shaxsning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini (self-efficacy) muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy determinantlaridan biri sifatida e'tirof etadi. Mazkur tadqiqotda o'quvchilarning o'z kuchiga ishonch darajasining ortishi, o'z ustida ishlashga bo'lgan ichki motivatsiyasining kuchayishi va individual rivojlanish istiqbollarini mustaqil ravishda loyihalashtirishga intilishi self-efficacy ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasini aks ettiradi. So'nggi yillarda xalqaro pedagogik amaliyotda keng qo'llanilayotgan "Life Design" konsepsiyasi ham tadqiqot natijalarini talqin etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

M.Savickas va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv shaxsning o'z hayot yo'lini ongli ravishda loyihalashtirish, kasbiy identifikatsiyani shakllantirish hamda o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashuvchanlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati, hayotiy qadriyatlar va shaxsiy maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlikni anglay boshlaganligi kuzatildi. Bu esa "Kelajak soatlari" mashg'ulotlari mazmunini life design tamoyillari asosida boyitish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari P. Pintrich va M. Boekaerts tomonidan ilgari surilgan o'quvchilarning ichki motivatsiyasi va metakognitiv strategiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlarni ham tasdiqlaydi. Xususan, refleksiv topshiriqlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, mavjud resurslarini baholash va kelgusidagi harakatlarini takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. O'quvchilarning refleksiv yozuvlari va suhbat natijalari shuni ko'rsatdiki, ular o'z muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini



avvalgiga nisbatan chuqurroq tahlil qila boshlaganlar hamda rivojlanish uchun individual strategiyalar ishlab chiqishga moyillik bildirganlar. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Jumladan, o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasi rivojlanishiga oilaviy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shaxsiy qiziqishlar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Mazkur omillar kelgusidagi tadqiqotlarda alohida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari "Kelajak soatlari" mashg'ulotlarini yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida baholash imkonini beradi. Ushbu metodik yondashuv o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki ularning hayot davomida o'qib-o'rganishga tayyorligi, kelajakdagi kasbiy faoliyatini ongli ravishda rejalashtirishi va shaxsiy o'sishga intilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy hamda refleksiv-baholovchi komponentlardan iborat integrativ tuzilmasi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi o'quvchilarning o'zini anglash, shaxsiy maqsadlarni belgilash, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, o'z faoliyatini monitoring qilish va natijalarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari yuqori sinf o'quvchilarida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Olib borilgan nazariy tahlillar, pedagogik kuzatishlar hamda tajriba-sinov ishlari natijalari asosida "Kelajak soatlari" mashg'ulotlari mazmuni va texnologik imkoniyatlari o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish, ularni kelajak hayotiga ongli tayyorlash hamda uzluksiz o'z ustida ishlashga yo'naltirishda muhim pedagogik resurs ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy hamda refleksiv-baholovchi komponentlardan iborat integrativ tuzilmasi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi o'quvchilarning o'zini anglash, shaxsiy maqsadlarni belgilash, rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, o'z faoliyatini monitoring qilish va natijalarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tizimning mazmuni "Kelajak soatlari" mashg'ulotlariga integratsiyalashgan interfaol topshiriqlar, refleksiv mashqlar, individual rivojlanish rejalari va istiqbolli hayotiy loyihalash elementlarini o'z ichiga oldi. Xususan, "SMART maqsadlar", "Mening kelajak xaritam", "Shaxsiy rivojlanish kundaligi", "Kasbiy identifikatsiya", "Hayotiy qadriyatlar piramidas" kabi metodik vositalardan foydalanish o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish, o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchini mustahkamlash hamda mustaqil rivojlanishga tayyorligini kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqladi. Xususan, tajriba guruhidagi o'quvchilarda o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasining rivojlanganlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Bu esa "Kelajak soatlari" mashg'ulotlarining o'quvchilarning kelajakka yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish, shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirish hamda hayot davomida ta'lim olishga tayyorligini ta'minlashdagi didaktik salohiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9–11-sinflari uchun "Kelajak soatlari" mashg'ulotlari mazmuniga o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus modullarni kiritish;
- o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyalarini loyihalashga xizmat qiluvchi metodik qo'llanmalar va ishchi daftarlarni ishlab chiqish;
- pedagoglar uchun o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini shakllantirish metodikasiga bag'ishlangan malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- refleksiv faoliyat, hayotiy loyihalash (life design) va kelajak ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ta'lim amaliyotiga joriy etish.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda o'zini-o'zi tarbiyalash kompetensiyasini rivojlantirishning raqamli pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalashgan mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, mazkur kompetensiyaning turli yosh bosqichlarida shakllanish dinamikasini o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr.



3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga oid qarorlari va me'yoriy hujjatlari. – Toshkent, 2023.
4. Zimmerman, B. J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective. In: Boekaerts M., Pintrich P., Zeidner M. (Eds.). Handbook of Self-Regulation. San Diego: Academic Press, 2000. – pp. 13–39.
5. Zimmerman, B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. Theory into Practice. – 2002. – Vol. 41(2). – pp. 64–70.
6. Bandura, A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.
7. Pintrich, P. R. The Role of Goal Orientation in Self-Regulated Learning. In: Boekaerts M., Pintrich P., Zeidner M. (Eds.). Handbook of Self-Regulation. Academic Press, 2000. – pp. 451–502.
8. Boekaerts, M. Self-Regulated Learning: Where We Are Today. International Journal of Educational Research. – 1999. – Vol. 31(6). – pp. 445–457.
9. Schunk, D. H., Greene, J. A. Handbook of Self-Regulation of Learning and Performance. – New York: Routledge, 2018. – 558 p.
10. Savickas, M. L. Career Construction Theory and Practice. In: Brown S., Lent R. (Eds.). Career Development and Counseling. – Hoboken: Wiley, 2013. – pp. 147–183.
11. Savickas, M. L., Nota, L., Rossier, J., et al. Life Designing: A Paradigm for Career Construction in the 21st Century. Journal of Vocational Behavior. – 2009. – Vol. 75(3). – pp. 239–250.
12. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 184 p.
13. OECD. Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2020.
14. OECD. Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition. – Paris: OECD Publishing, 2023.
15. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: WEF, 2025.
16. Delors, J. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO, 1996.
17. Knowles, M. S., Holton, E. F., Swanson, R. A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. – 8th ed. – London: Routledge, 2015.
18. Ryan, R. M., Deci, E. L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Well-being. – New York: Guilford Press, 2017.
19. Voogt, J., Roblin, N. P. A Comparative Analysis of International Frameworks for 21st Century Competences. Journal of Curriculum Studies. – 2012. – Vol. 44(3). – pp. 299–321.
20. Trilling, B., Fadel, C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009.
21. Quronov, M. Yoshlar tarbiyasining metodologik asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
22. Musurmonova, O. O'quvchi shaxsini ma'naviy rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
23. Nishonova, S., Xasanboyev, J., Tolipov, O. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
24. Tolipov, O., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
25. Xodjayev, B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.